



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING "SOFT SKILLS" (YUMSHOQ KO'NIKMALAR) VA EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Shukurova Saodat Anvar qizi

A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2-bosqich magistrant

Annotatsiya

Maqolada maktab o'quvchilarida emotsional intellekt va "soft skills"ni rivojlantirishning innovatsion pedagogik mexanizmlari, metodlari hamda natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yumshoq ko'nikmalar, emotsional intellekt, pedagogik mexanizmlar, didaktik modellar, maktab ta'limi, kompetensiya, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kognitiv rivojlanish, moslashuvchanlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ "SOFT SKILLS" (МЯГКИХ НАВЫКОВ) И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА УЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОМ ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Шукурова Саодат Анвар кизи

Джизакский государственный педагогический университет имени А. Кадыри, магистрант
2 курса

Аннотация

В статье анализируются инновационные педагогические механизмы, методы и результаты развития эмоционального интеллекта и «мягких навыков» у школьников.

Ключевые слова: Мягкие навыки, эмоциональный интеллект, педагогические механизмы, дидактические модели, школьное образование, компетенция, критическое мышление, креативность, когнитивное развитие, адаптивность.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING "SOFT SKILLS" AND EMOTIONAL INTELLIGENCE OF STUDENTS IN MODERN SCHOOL EDUCATION

Shukurova Saodat Anvar qizi

Jizzakh State Pedagogical University named after A. Qodiriy, 2nd-year Master's student

Abstract

The article analyzes innovative pedagogical mechanisms, methods, and results of developing emotional intelligence and "soft skills" in school students.

Keywords: Soft skills, emotional intelligence, pedagogical mechanisms, didactic models, school education, competence, critical thinking, creativity, cognitive development, adaptability.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi oxiriga kelib, insoniyat sivilizatsiyasi kognitiv va ijtimoiy-emotsional inqilob davriga qadam qo'ydi. An'anaviy sanoat iqtisodiyotidan bilimlar va konsepsiyalar iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mehnat bozoridagi talablarni tubdan o'zgartirib yubordi. Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) ekspertlarining xulosalariga ko'ra, agar o'tgan asrda shaxsning kasbiy layoqati uning tor doiradagi texnik va akademik bilimlari (Hard skills) bilan o'lchangan bo'lsa, bugungi kunda shaxs va mutaxassis muvaffaqiyatining qariyb 85 foizi uning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari, ya'ni "Soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) bilan

belgilanmoqda. Ushbu global tendensiya umumiy o'rta ta'lim muassasalari oldiga o'quvchilarda nafaqat qat'iy akademik bilimlarni (faktlar, yodlashga asoslangan ma'lumotlar), balki doimiy o'zgaruvchan dunyoda yashash uchun zarur bo'lgan moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi hayotiy muhim kompetensiyalarni shakllantirishdek murakkab vazifani qo'yimoqda.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "Soft skills" atamasi shaxsning kognitiv, ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarini majmuaviy tarzda ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etiladi. Zamonaviy pedagogika ularni 4K (yoki inglizcha 4C) qoidasi bilan umumlashtiradi: Kommunikatsiya (Communication), Kollaboratsiya yoxud hamkorlik (Collaboration), Kreativlik (Creativity) va Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Shu o'rinda, yumshoq ko'nikmalarning mantiqiy poydevori hisoblangan "Emotsional intellect" (EQ) fenomeniga alohida to'xtalish lozim. Amerikalik psixolog Daniel Goleman o'zining yirik tadqiqotlarida emotsional intellektni beshta tarkibiy qismga ajratadi: insonning o'z his-tuyg'ularini anglashi, ularni boshqara olishi, o'zini o'zi motivatsiya qilishi, atrof-muhitdagi insonlarning holatini tushunishi (empatiya) va ijtimoiy munosabatlarni samarali o'rnatish olishi. Maktab yoshidagi o'quvchilarda EQ ning yuqori darajada in'ikos topishi ularning o'quv jarayonidagi kognitiv yuklamalar va stresslarni yengib o'tishiga, tengdoshlari bilan sog'lom raqobat o'rnatishiga kafolat bo'ladi. Biroq, an'anaviy ta'lim tizimidagi "o'qituvchi - faol axborot beruvchi, o'quvchi - passiv qabul qiluvchi" shaklidagi avtoritar model yordamida emotsional intellektni maqsadli rivojlantirib bo'lmaydi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning didaktik mexanizmlarini ilg'or xorijiy amaliyot asosida qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Zamonaviy didaktikada kognitiv va emotsional ko'nikmalarni uzviy shakllantirish bo'yicha Singapur va Finlyandiya ta'lim modellari butun dunyo uchun yetakchi andoza (benchmark) bo'lib xizmat qilmoqda. Bu ikki davlatning yondashuvlari turlicha bo'lsa-da, ularning yakuniy maqsadi bitta – o'quvchini real hayotga tayyorlashdir.

Singapur ta'lim tizimi pragmatik va tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, ular 2010-yildayoq "21-asr kompetensiyalari asosi" (Framework for 21st Century Competencies and Student Outcomes) deb nomlangan milliy paradigmani qabul qildi. Ushbu modelning o'zagi o'quvchini o'ziga ishongan, o'zlashtirishga mustaqil yo'naltirilgan, faol fuqaro sifatida tarbiyalashdan iborat. Singapur maktablarida o'quv dasturlari shunday gorizontall integratsiya qilinganki, aniq va tabiiy fanlarni (masalan, matematika yoki fizika) o'qitishda ham bevosita ijtimoiy-emotsional ta'lim (Social and Emotional Learning - SEL) elementlari faol qo'llaniladi. Ularning mashhur "Kamroq o'qiting, ko'proq o'rganing" (Teach Less, Learn More) konsepsiyasi o'qituvchining darsdagi sof nazariy monologini keskin qisqartirib, o'quvchilarning o'zaro muloqoti, amaliy loyiha ishlari (Project-based learning) va izlanishlari uchun keng maydon yaratadi. Natijada o'quvchi tayyor bilimlarni xotirasiga joylash bilan emas, balki guruh ichida muloqot qilish, fikrini asoslash va murosaga kelish orqali "Soft skills" ni o'zlashtiradi.

Boshqa tomondan, Yevropa ta'limining yorqin namunasi bo'lgan Finlyandiya modeli qat'iy qoidalar va standartlashtirishdan qochib, mutlaqo erkin pedagogik mexanizmlarga tayanadi. Fin maktablarida "Soft skills" va emotsional intellekt dars jadvaliga maxsus kiritilgan fan sifatida o'qitilmaydi, balki u butun maktabning ijtimoiy muhitiga (school culture) singdirib yuborilgan. Fin pedagogikasining so'nggi innovatsiyasi bo'lgan "Hodisalarga asoslangan ta'lim" (Phenomenon-based learning - PhBL) formati aynan emotsional intellektni o'stirishga qaratilgan eng kuchli didaktik qurol hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida o'quvchilar alohida ajratilgan fanlarni quruq yodlash o'rniga, real hayotiy va global hodisalarni (masalan, global isish muammosi, Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti yoki suv aylanish sikli) yaxlitlikda, fanlararo bog'liqlikda o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar erkin kichik guruhlariga bo'linadi, muammoni mustaqil tahlil qiladi va birgalikda yechim izlaydi. Eng asosiysi, fin o'qituvchilari o'quvchilarni doimiy nazorat ishlari va standart testlar orqali sun'iy stressga tushirmaydilar. Aksincha, o'quvchiga "xato

qilish huquqi"ni berish orqali unda emotsional xavfsizlik, tavakkal qilishdan qo'rqmaslik va ijodiy erkinlik hissi shakllantiriladi. Aynan shu emotsional qulay muhit bolaning kognitiv funksiyalarini maksimal darajada ishga tushiradi.

Jahon tajribasini (Singapur va Finlyandiya modellarini) milliy ta'lim tizimimizga integratsiya qilish ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yadi. Bunda eng birinchi pedagogik mexanizm — bu o'qituvchi rolini transformatsiya qilishdir. O'qituvchi an'anaviy “yagona to'g'ri axborot Manbai” maqomidan voz kechib, o'quvchilarni yo'naltiruvchi, ularning kognitiv faoliyatini rag'batlantiruvchi fasilitator va mentorga aylanishi shart. Agar dars jarayonida o'quvchiga o'z fikrini erkin ifoda etish, bahslashish va xato qilish imkoniyati kafolatlanmasa, hech qanday zamonaviy interaktiv texnologiya “Soft skills”ni ham, emotsional intellektni ham rivojlantira olmaydi.

O'quvchilarda emotsional intellekt va yumshoq ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali didaktik modellaridan biri bu — Loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning - PBL) hamda Hamkorlikda o'qitish (Collaborative learning) texnologiyalaridir. Zamonaviy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar kichik guruhlarda aniq bir muammoni hal qilish ustida ishlaganda, ularda nafaqat akademik o'zlashtirish ko'rsatkichi oshadi, balki empatiya, o'zaro tushunish va jamoaviy mas'uliyat hissi intensiv ravishda shakllanadi. Masalan, aniq fanlar (matematika, fizika, geografiya) darslarida “Qanday qilib maktab binosining energiya sarfini 20 foizga kamaytirish mumkin?” yoki “Hududimizdagi ekologik muvozanatni saqlash yechimlari” kabi ochiq turdagi (Open-ended) muammolar o'rtaga tashlanishi lozim. O'quvchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linib, mustaqil ma'lumot to'playdi, gipotezalar yaratadi va o'z yechimlarini himoya qiladi. Bu jarayonda yetakchilik (leadership), vaqtni boshqarish (time-management), kognitiv dissonansni yengish va taqdimot qilish ko'nikmalari bevosita amaliyot o'chog'ida toblanadi.

Emotsional intellektni (EQ) kognitiv rivojlanish bilan sinxronlashtirish uchun rolli o'yinlar (Role-playing), keys-stadi (Case-study) va muntazam refleksiya amaliyotlaridan tizimli foydalanish tavsiya etiladi. O'smirlik davrida o'quvchilarning psixologik va fiziologik o'zgarishlari fonida emotsional beqarorlik kuchayishi ilmiy isbotlangan fakt. Shuning uchun, gumanitar fanlar (adabiyot, tarix, huquq, tarbiya) darslarida tarixiy shaxslar yoki adabiy qahramonlarning ruhiy holatini tahlil qilish, ijtimoiy ziddiyatlarni simulyatsiya qilish va o'quvchini boshqa birovning o'rniga o'zini qo'yib ko'rishga majbur qiladigan (empatiya) mashqlari nihoyatda samaralidir. Shuningdek, har bir dars yakunida o'tkaziladigan qisqa refleksiya jarayonida o'quvchining “Men bugun nimani yod oldim?” degan standart savoldan ko'ra, “Bugungi darsda men o'zimni qanday his qildim?”, “Guruh bilan ishlashda qanday qiyinchiliklarga duch keldim va uni qanday yengdim?” degan savollarga javob izlashi uning o'z-o'zini anglash (self-awareness) va o'zini o'zi tartibga solish (self-regulation) qobiliyatini keskin oshiradi.

Tadqiqotning yana bir o'ta muhim jihati — shakllantirilgan “Soft skills” va emotsional intellektni obektiv baholash mexanizmidir. An'anaviy summativ baholash (choraklik nazoratlar yoki yopiq turdagi testlar) o'quvchining kreativligi, moslashuvchanligi yoki muloqot madaniyatini o'lchashga qodir emas. Shu sababli, amaliy pedagogikaga formativ baholash (Formative assessment) va o'quvchi portfoliosi tizimini chuqur joriy etish talab qilinadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining faqat yakuniy natijasini (quruq javobni) emas, balki yechimga kelish traektoriyasini, jamoaga qo'shgan individual hissasini va xatolarni to'g'rilashdagi konstruktiv yondashuvini maxsus mezonlar (rubrikalar) asosida baholab borishi lozim. Aynan shu yondashuv o'quvchida “faqat a'lo baho uchun o'qish” kabi destruktiv motivatsiyani emas, balki xatolardan xulosa chiqarib, doimiy “o'sish va rivojlanish psixologiyasi”ni (Growth mindset) shakllantiradi.

O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlillar va zamonaviy pedagogik tendensiyalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning “Soft skills” (yumshoq ko'nikmalar) va emotsional intellektini (EQ) rivojlantirish shunchaki ta'limiy yondashuv emas, balki bugungi davrning kechiktirib bo'lmaydigan hayotiy zaruratidir.

Postindustrial jamiyat va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida shaxsning ijtimoiy moslashuvi hamda kasbiy muvaffaqiyati faqatgina sof akademik bilimlarga (Hard skills) tayanib qololmaydi. Bugungi kun o'quvchisi o'zgaruvchan va noaniqliklarga to'la muhitda tez qaror qabul qila oladigan, jamoada samarali ishlaydigan, tanqidiy fikrlaydigan va eng muhimi, o'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan barkamol shaxs bo'lishi talab etiladi.

Ushbu ilmiy xulosalardan kelib chiqib, milliy ta'lim tizimimizda "Soft skills" va emotsional intellektni rivojlantirishni jadallashtirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Pedagogik funksiyalarni transformatsiya qilish: O'qituvchilarning an'anaviy "yagona axborot manbai" rolidani voz kechib, o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy faoliyatini yo'naltiruvchi fasilitator hamda mentorga aylanishini ta'minlash.

2. Ta'lim mazmunini integratsiyalash va amaliylashtirish: O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, aniq va tabiiy fanlar darslarida ham o'quvchining muloqot qilishi, jamoada ishlashi va muammoli vaziyatlardan chiqib ketishi uchun maxsus amaliy keyslar yaratish tizimini joriy etish.

3. Baholash tizimini takomillashtirish: Faqatgina natijani o'lchovchi an'anaviy summativ baholash mezonlarini o'zgartirib, o'quvchining shaxsiy o'sish dinamikasi, kreativ yondashuvi va xatolarni to'g'rilashdagi intilishlarini baholovchi formativ baholash hamda o'quvchi portfoliosi tizimini bosqichma-bosqich amaliyotga kiritish.

4. Psixologik xavfsiz muhit yaratish: Maktablarda o'quvchilar uchun "xato qilish huquqi"ni ta'minlovchi, stressdan xoli, ijobiy emotsional iqlimni shakllantirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy maktabning bosh maqsadi — bolaning xotirasini quruq faktlar bilan to'ldirish emas, balki uning aqlini va qalbini uyg'otish, unga mustaqil hayot sinovlaridan munosib o'tish uchun zarur bo'lgan universal "hayotiy immunitet"ni taqdim etishdir. Yumshoq ko'nikmalar va emotsional intellekt esa aynan shu muvaffaqiyatning tamal toshi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y.
2. Yo'ldoshev J. G., & Usmonov, S. A. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2004 y.
3. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas, 83(2), 2010. 39-43.
4. Lonka K. Phenomenal Learning from Finland. Helsinki: Edita Publishing Oy. 2018.
5. Ministry of Education, Singapore. Framework for 21st Century Competencies and Student Outcomes. Singapore: MOE. 2015.
6. Sahlberg, P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press. 2015.